



Zulfiya: Adabiyotning yorqin yulduzi va ilhom manbai

Xamidxanova Barno Ma'rufxon qizi

TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik

litseyining 1-bosqich 102-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi, shoir va jamoat arbobi Zulfiya hayoti, ijodi, adabiyotga qo'shgan hissasi hamda uning asarlarida aks etgan bosh g'oyalar tahlil qilinadi. Shoiraning ijodiy yo'li, adabiyotdagi o'rni va bugungi kunda uning nomi qanday e'tirof etilayotgani haqida so'z yuritiladi. Zulfiya asarlarining zamonaviy avlod uchun ahamiyati, uning she'riyatidagi yuksak badiiy mahorat va ijtimoiy faolligi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Zulfiya, orden, laureti, ayol ijodkor, muhabbat, Vatan, insoniylik, Zulfiya mukofoti, madaniy meros, she'riyat, ijod, ayol huquqlari, jamiyat. English Translation:

Аннотация: В данной статье анализируются жизнь, творчество и вклад в литературу выдающейся представительницы узбекской литературы, поэтессы и общественного деятеля Зульфийи. Рассматриваются её творческий путь, роль в литературе и то, как её имя признаётся сегодня. Также освещается значение произведений Зульфийи для современного поколения, её высокое художественное мастерство в поэзии и её социальная активность.



Ключевые слова: Зульфия, орден, лауреат, женщина-творец, любовь, Родина, человечность, премия Зульфии, культурное наследие, поэзия, творчество, права женщин, общество.

Abstract: This article analyzes the life, works, and contributions of the prominent representative of Uzbek literature, poet, and public figure Zulfiya. It discusses her creative journey, role in literature, and how her name is recognized today. The significance of Zulfiya's works for the modern generation, her high artistic mastery in poetry, and her social activism are also highlighted.

Keywords: Zulfiya, order, laureate, female writer, love, homeland, humanity, Zulfiya award, cultural heritage, poetry, creativity, women's rights, society.

Zulfiya 1915-yil 1-mart kuni Toshkent shahrida dunyoga kelgan. U bolaligidan she'riyatga qiziqib, o'zining ijodiy faoliyatini juda erta boshlagan. Uning ilk she'ri 1931-yilda "Ishchi" gazetasida bosilgan. Dastlab 1932-yilda "Hayot varaqalari" she'riy to'plami nashr etilgan. Keyinchalik "Temiroy" (1934), "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" (1939) she'riy kitoblari e'lon qilingan. Zulfiya she'riy ijodining porlashi "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) to'plamlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar shoira ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi.

1940-yillar oxirida e'lon qilingan Sovet Ittifoqining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya badbin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida tanqidga uchradi. Shu sababli u "davr g'oyalari"ni ifodalovchi she'rlar yozishga majbur bo'ldi. Keyinchalik, u o'zbek ayollari hayotini yaxshi



biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she' r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun kurashdi. 1950-yillarning ikkinchi yarmida Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatlarida faol qatnashib, Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga tashrif buyurdi. Bu safarlar shoira ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" kabi she'rlari unga katta shuhrat keltirdi.

Zulfiya ijodida asosiy mavzular asosan, vatanga sadoqat va fidoyilik – shoironing ko'plab she'rlarida yurtga muhabbat, xalqparvarlik va fidoyilik g'oyalari aks etadi. Ayol qiyofasi va uning jamiyatdagi o'rnini – Uning asarlarida ayol siymosi ulug'lanadi, uning mehribonligi, matonati va donoligi madh etiladi. Tinchlik va insonparvarlik – Shoironing urush yillarida yozgan she'rlari tinchlik, do'stlik va birodarlik g'oyalarini ilgari suradi. Muhabbat va hayot go'zalligi – Uning she'riyatida samimiy sevgi, tabiatning betakror go'zalligi, insoniy his-tuyg'ular ustuvor mavzulardan biri hisoblanadi.

U xalqaro "Javaharlal Neru" (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1970) laureati bo'ldi. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

Zulfiya nomini adabiy lashtirish maqsadida, O'zbekiston hukumati atoqli shoironing madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, Zulfiya ijodi va merosi bugungi kunda ham qadrlanadi. Uning nomi ko'chalarga, maktablarga berilgan. 1999-yildan boshlab, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan bo'lib, bu mukofot har yili iste'dodli qizlarga taqdim etiladi. Bu esa shoironing ayollarga bo'lgan yuksak hurmatini, ularning iste'dodini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi fidoyiligini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zulfiya – o'zbek adabiyotining yorqin yulduzi bo'lib, uning ijodi Vatanga muhabbat, insoniylik va adabiy go'zallik bilan yo'g'rilgan. U



hayotini adabiyotga bag'ishlab, o'zidan boy meros qoldirgan. Shoiraning asarlari bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan, aksincha, yangi avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Uning nomi, she'rlari va hayotiy falsafasi abadiy yashaydi. Zulfiyaning ijodi ayollar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatini ulug'lash borasida katta ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlarida xalqning og'ir taqdirlari, urush fojialari va o'z davrining murakkab muammolari aks etgan. Bugungi kunda Zulfiya asarlari nafaqat o'zbek, balki butun dunyo adabiyoti va madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Uning ijodi ayollarga ilhom manbai bo'lib, ularni o'z orzulari sari intilishga undaydi. Zulfiya nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon madaniyati uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan shoiradir. Uning ijodi doimiy tadqiq etilishi, yangi avlodga yetkazilishi va milliy meros sifatida asrab-avaylanishi lozim. Shoiraning nomi, asarlari va hayotiy falsafasi kelajak avlodlar uchun doimiy ilhom manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Zulfiya. Tanlangan asarlar" – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
2. Karimov A. "Zulfiya hayoti va ijodi" – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. O'zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: Fan nashriyoti, 1995
4. Xudoyberganova M. "Zulfiya ijodida ayol qiyofasi" – Toshkent: Ma'naviyat, 2010
5. Sobirova D. "O'zbek she'riyatining zabardast namoyandalari" – Toshkent: Akademnashr, 2018.